

## QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANILADIGAN KALIY O'G'ITINI ISHLAB CHIQUARISHDA ELEKTR ENERGIYASI ISTE'MOLI

**Hayitov Shuxrat Shokir o'g'li**

*Buxoro energetika, neft va gaz sanoati texnikumi,  
ishlab chiqarish ta'lim ustasi*


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida kaliy o'g'itining ahamiyati va uni ishlab chiqarishda sarflanadigan elektr energiyasi miqdori tahlil qilingan. Dehqonobod kaliy zavodi misolida ishlab chiqarish hajmi va energiya iste'moli o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, energiya resurslaridan samarali foydalanish masalasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Dehqonobod kaliy zavodi – O'zbekistonda kaliy o'g'iti ishlab chiqaruvchi yagona korxona hisoblanadi. Energiya samaradorligini oshirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, Kaliy o'g'itini ishlab chiqarish jarayonida katta miqdorda energiya resurslari, jumladan, elektr energiyasi sarflanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan qishloq xo'jaligiga oid samarali siyosat natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi hamda fermerlar va agrotashkilotlar daromadlari oshadi, qishloq joylarda minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu erlarda yashash darajasi ko'tariladi, bir qator oziq-ovqat mahsulotlari aholi uchun arzonroq bo'ladi va mamlakat ishonchli oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlay oladi.

Aholi sonining muntazam oshib borishi natijasida oziq-ovqat muhsulotlariga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib boradi. Bu esa o'z navbatida ekin maydonlaridan samarali foydalanish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hosildorligini bosqichma-bosqich oshirib borishni talab etadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi va sifatliiligi ta'minlashda ekin maydonlari mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekin maydonlarini oziqlantirishda azot, fosfor kabi mineral og'itlar bilan bir qatorda kaliy o'g'iti ham muhim rol o'ynaydi.

Kaliy o'g'itlarini ishlab chiqarishda O'rta Osiyoda yagona bo'lgan Dehqonobod kaliy zavodi misolida oladigan bo'lsak, 1-rasmida keltirilgan ishlab chiqarish dinamikasidan korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi yildan yilga kengayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa mos ravishda energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojning oshishini ko'rsatadi. Har bir korxonada ishlab chiqarish jarayonlari belgilangan energiya resurslaridan sarfi bilan bevosita bog'langan. Kaliy o'g'itlar zavolarida 1 tonna mahsulot ishlab chiqarish uchun o'rtacha 17-18 kVt\*soat elektr energiyasi, 12,7 m<sup>3</sup> tabiiy gaz, 0,0175-0,0178 m<sup>3</sup> issiq suv hamda 8-9 kg atrofida bug' energiyalari sarflanadi



**1- rasm. Korxonaning kaliy o‘g‘itini ishlab chiqarish hajmi (yillar kesimida ming tonna birlikda).**

Bugungi kunda korxona mahalliy ehtiyojlarni va eksport talblarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatini yiliga 600 ming tonnagacha oshirishni maqsad qilganlar. Korxonaning ishlab chiqarish hajmi oshirilishi natijasida uning elektr energiyasi iste’moli o‘zgarishini 2- rasmda ko‘rishimiz mumkin.



**2-rasm. Korxonaning elektr energiyasi iste’moli dinamikasi(ming kVt\*soatda).**

**Adabiyotlar:**

1. U.S. Department of Energy. Smart Grid / Department of Energy (<http://energy.gov/oe/technology-development/smart-grid>). 2012.
2. Vikipediyadan, ochiq ensiklopediya malumotlari.